



**FAXRIYOR IJODIDA OKSIMORONLARNING
STILISTIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

Abdukarimova Moxidil Xayrullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: abdukarimovamohidil@gmail.com

Ibragimova Iroda Artikmashrabovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi vakillaridan biri — Faxriyor ijodida qo'llanilgan oksimoronlarning stilistik-semantik tabiati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oksimoronlarning shoir poetikasida qanday funksional yuklama bajarishini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, oksimoronlarning shoirning individual uslubini shakllantiruvchi, ichki ruhiy ziddiyat hamda falsafiy paradokslarni ifodalovchi muhim sintaktik figura sifatida namoyon bo'lishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: oksimoron tushunchasi, sintaktik figura, poetik tafakkur, drammatizm, semantik ziddiyat, paradoks, stilistik-semantik xususiyat.

Kirish

She'riyatning lingvopoetik tadqiq jarayonida turli badiiy tasvir vositalari, jumladan, sintaktik figuralar muhim o'rin tutadi. Ijodkor nutqida nisbatan kam uchrasa-da, o'quvchini chuqur mushohadaga chorlovchi hamda she'rning badiiy-estetik qiymati va stilistik-semantik xususiyatlarini boyituvchi birlik tilshunoslikda oksimoron termini bilan yuritiladi. Oksimoron o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlarning sintaktik birikishi asosida yuzaga keladigan, kuchli obrazlilik va paradoksal mazmun ifodalovchi badiiy vositadir. U inson xarakterining murakkab jihatlarini, narsa va hodisalarning ziddiyatli sifatlarini hamda his-tuyg'ularning ichki qarama-qarshiligini ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur usul voqelikning ichki drammatizmini ochib beruvchi stilistik vosita bo'lib, semantik ziddiyat asosida yuzaga keladi.

Badiiy adabiyot nazariyasida ziddiyat hodisasi tadqiqotchilar tomonidan doimiy qiziqish uyg'otib kelgan. Xususan, antiteza (zidlantirish) usuli narsa va hodisalarga xos harakat, holat hamda belgilarni qarama-qarshi qo'yish orqali ularning o'ziga xos xususiyatini ochib beradi va poetik ifodaning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Tilshunoslikda ziddiyatni ifodalovchi "antiteza", "paradoks", "kontrast" kabi atamalar keng qo'llanadi. Biroq mazkur tushunchalar tuzilishi, semantik asoslari hamda she'riy matndagi funksional



vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Shu jihatdan oksimoron mazkur ziddiyat shakllari orasida alohida o'rin tutadi, chunki u qarama-qarshi ma'noli so'zlarning sintaktik birikishi orqali yuzaga kelib, ixcham shaklda kuchli semantik ziddiyat hosil qiladi.

J. Lapasovning tarifi ko'ra: "Oksimoron grekcha o'tkir ma'noli be'manilik so'zidan olingan bo'lib, u antitezaning bir ko'rinishi hisoblanadi va bir - biriga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtirib, yangi bir ma'no keltirib chiqariladi"

U mantiqan qarama-qarshi tushunchalarni ixcham shaklda birlashtirib, kuchli semantik ziddiyat va paradoksal mazmun hosil qiladi. Shu jihatdan oksimoron antitezadan farqli ravishda qarama-qarshi tushunchalarni parallel qo'yish emas, balki ularni yagona sintaktik birlik doirasida mujassamlashtirish orqali obrazlilikni yuzaga chiqaradi.

Shu bilan birga, oksimoron hodisasi Sharq mumtoz she'riyatidagi tazod san'atining ildiziga borib taqalsa-da, ular tuzilish va semantik zichlik nuqtai nazaridan farqlanadi. Tazod ochiq qarama-qarshi qo'yishga asoslansa, oksimoron ichki semantik ziddiyatni birikma darajasida ifodalaydi. Zamonaviy she'riyatda mazkur usul inson ruhiyatidagi murakkablik, ichki dramatizm va falsafiy paradoksni aks ettirishning samarali vositasiga aylangan. Xususan, Faxriyor ijodida oksimoron shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi, ichki ziddiyat va ma'naviy izlanishlarni ifodalovchi muhim stilistik-semantik figura sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan shoirning "Qora shu'la" she'riga murojaat qiladigan bo'lsak, asarning nomidayoq oksimoronik birlik qo'llanganini kuzatish mumkin. "Qora" va "shu'la" leksemalarining o'zaro zid ma'nolari birikib, semantik paradoksni yuzaga keltiradi. She'r matnida ham mazkur ziddiyat izchil davom ettiriladi. Xususan, quyidagi misralarda oksimoronning turli ko'rinishlari namoyon bo'ladi:

Soya ichidagi shu'la
Ola boshlar sening shaklingni
Negativ shu'la
Senda o'nlab olar o'zini
Zulmatdagi shu'lalar
Sening vujudingda kunga chiqadi
Soya sen va zamin oralig'ida
Sodir bo'lgan kunduzgi tundur.

Mazkur satrlarning birinchi, uchinchi, beshinchi hamda so'nggi misralarida ichki semantik qarama-qarshilik mujassamlashgan. Birinchi misrada uchraydigan "Soya ichidagi shu'la" birikmasini stilistik va semantik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur ifoda o'zaro zid ma'noli



tushunchalarning yagona sintaktik birlikda uyg'unlashuvi asosida yuzaga kelgan oksimoron ekanligi ayon bo'ladi. An'anaviy tasavvurda shu'la soyaning aksi, uni yo'q qiluvchi kuch sifatida idrok etiladi. Shoir esa "soya" va "shu'la" leksemalarini birlashtirish orqali ichki semantik ziddiyat hosil qiladi. Semantik talqinda nur soya ichidan unib chiqayotgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Agar soya inson ruhiyatidagi tushkunlik va iztirobni anglatrsa, shu'la ana shu qorong'ulik bag'rida miltillagan umid timsolini ifodalaydi. Natijada kuchli ichki drammatizm yuzaga keladi.

Keyingi misrada qo'llangan "Negativ shu'la" birikmasi ham paradoksal mazmunga ega. Shu'la odatda ijobiylik, yorug'lik va ma'naviy yuksalish bilan bog'lanadi. "Negativ" komponentining qo'shilishi esa mazkur ijobiy semantikani inkor etib, teskarilangan yorug'lik obrazini yaratadi. Bu orqali shoir borliqni faqat musbat nuqtai nazardan emas, balki mohiyatni ochib beruvchi teskari prizma orqali idrok etilishini ko'rsatadi.

"Zulmatdagi shu'lalar" iborasi esa shoir poetikasida oddiy qarama-qarshilik emas, balki ontologik darajadagi ziddiyatni ifodalaydi. Nur va zulmat o'zaro inkor qiluvchi tushunchalar bo'lsa-da, mazkur birikmada zulmat shu'laning mavjudlik muhiti sifatida talqin etiladi.

Zulmatdagi shu'lalar

Sening vujudingda kunga chiqadi

Ushbu misralar inson ichki dunyosidagi og'riqli va qorong'u qatlamlar tashqi voqelik bilan to'qnashganda ma'naviy yorug'likka aylanishi mumkinligini anglatadi. Demak, zulmat bu yerda yo'qotilishi kerak bo'lgan hodisa emas, balki nur paydo bo'lishining sharti sifatida talqin etiladi.

She'rda semantik va stilistik jihatdan eng kuchli oksimoron so'nggi misrada uchraydigan "kunduzgi tun" birikmasidir. "Kun" va "tun" leksemalarining birikishi tashqi yorug'lik va ichki zulmat o'rtasidagi ziddiyatni mujassamlashtiradi. Bu ifoda orqali lirik qahramon ruhiy holatining fojeaviy tabiati ochiladi: tashqi olam yorug' va ravshan bo'lsa-da, ichki dunyo qorong'u va iztirobli. Natijada she'rning dramatik va falsafiy ohangi yanada kuchayadi.

Antitezaga yaqin hodisa sifatida baholanadigan oksimoron Faxriyor she'riyatida shoirning individual poetik tafakkurini namoyon etuvchi muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Shoirning "Sonetariy" she'riga murojaat qiladigan bo'lsak, unda ham mazkur stilistik figura o'ziga xos semantik yuklama bilan qo'llangan:

Tiyraxon bog'lari rutubatlidir,

Kezinar, ezinar telba ruhunat.

Yomg'ir bo'lib bo'zlar sag'ir sukunat,

Ichingda o'rmalar kuygan bir gidrat.



She'rdagi uchraydigan "sag'ir sukunati" birikmasi o'zaro semantik jihatdan ziddiyat tushunchalarning birikishi asosida yuzaga kelgan oksimoron hisoblanadi. "Sag'ir" sifati odatda tovush mavjud bo'lgan, ammo uni idrok etmaydigan subyektga nisbatan qo'llaniladi. "Sukunati" esa tovushning mutlaq yo'qligi holatini bildiradi. Demak, tovush mavjud bo'lmagan muhitga "eshitmaslik" xususiyatining nisbat berilishi mantiqiy paradoksni yuzaga keltiradi.

Mazkur oksimoron orqali shoir oddiy jimlikni emas, balki mutlaq befarqlik, ichki yolg'izlik va kommunikativ uzilish holatini ifodalaydi. "Sag'ir sukunati" obrazida sukunati jonlantiriladi va u idrok qilish qobiliyatidan mahrum bo'lgan holatda tasvirlanadi. Bu esa lirik qahramonning ruhiy izolyatsiyasi va ichki dramatismini kuchaytiradi.

"Yomg'ir bo'lib bo'zlar sag'ir sukunati" misrasi mazkur obrazning semantik qatlamini yanada murakkablashtiradi. Bu yerda sukunati faryod chekayotgan, biroq o'z faryodini o'zi eshitmaydigan holatda tasvirlanadi. Natijada ichki iztirob, ifodalanmagan og'riq va ruhiy fojia oksimoron vositasida chuqur poetik ifodasini topadi.

Oksimoron o'zaro semantik jihatdan ziddiyat bo'lgan birliklarning yagona sintaktik konstruksiyada qo'llanilishi orqali g'ayritabiiy ma'no va obrazlilikni yuzaga keltiruvchi stilistik figuradir. Ushbu figura she'riy nutqda kuchli poetik ta'sirni hosil qilib, badiiy ifodaning obrazlilik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Faxriyorning "Ayolg'u" she'riy to'plamida "zulmat ichidagi shu'lalar", "sassiz tovush", "sag'ir sukunati", "qora shu'la" kabi ko'plab oksimoronlar qo'llanib, shoir poetikasining o'ziga xos lingvopoetik xususiyatlarini namoyon etadi. Mazkur oksimoronlar o'zaro semantik ziddiyat asosida yuzaga kelib, shoirning individual uslubini shakllantiruvchi hamda lirik qahramon ruhiyatidagi murakkab kechinmalarni ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, oksimoron antitezaga yaqin hodisa bo'lsa-da, undan farqli ravishda qarama-qarshi ma'noli birliklarning yagona sintaktik birikmada uyg'unlashuvi orqali kuchli semantik va poetik ziddiyatni yuzaga keltirishi bilan ajralib turadi.

Xulosa

Oksimoron shoir poetikasida badiiy ifodaning obrazlilik darajasini oshiruvchi muhim sintaktik figura hisoblanadi. O'zaro semantik jihatdan ziddiyat birliklarning yagona sintaktik konstruksiyada qo'llanilishi she'rning nafaqat mazmuniy qatlamini chuqurlashtiradi, balki uning stilistik ifoda imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Natijada she'riy matnda o'ziga xos poetik ruh, estetik ta'sirchanlik hamda o'quvchini chuqur mushohadaga chorlovchi falsafiy mazmun yuzaga keladi.

Faxriyoriy ijodida qo'llanilgan oksimoronlar shoirning individual uslubini shakllantiruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu



stilistik figura shoir asarlarida ruhiy ziddiyat, ichki dramatism va falsafiy mushohadani ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois oksimoronlar nafaqat shoir poetikasini boyituvchi vosita, balki zamonaviy o'zbek she'riyatining lingvopoetik rivojlanishida muhim o'rin egallovchi badiiy hodisa sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nizomov F. Ayog'lu she'riy to'plami — Toshkent: 2002. B.67, 96, 97.
2. Nizomov F. Geometrik bahor she'riy to'plami — Toshkent: 2002. B.75
3. OKSYUMORON HAQIDA MULOHAZA cuberleninka.ru
4. Oksimoron wikipedia.uz
5. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлил. — Тошкент:
1. Укитувчи, 1995. 42-б.